2. Shrift o’lchami, rangi va Web sahifa foni



Xarf o’lchami

Matnda sarlavxalarni belgilash uchun **< Hx> ...sarlavxa < /Hx>** belgisi qo’llaniladi. Bu erda sarlavxa o’lchami kamayib borish tartibida x=1 dan to x=6 gacha o’zgaradi (1-eng katta). Masalan:

< h4> shrift o’lchami < /h4>

Keltirilgan tegga yo’nalishni xam qo’llash mumkin :


< h5 align=”right”> 5-darajali sarlavxa < /h5> (berkiluvchi teg majburiy) qolgan matnlarning xarf o’lchamlari **< font size=”n”> ..... < /font>** buyrug’i yordamida beriladi. Teglar bir-biriga qo’shilgan bo’lishi mumkin (ularni to’g’ri berkitishni unutmaslik lozim). Xarf o’lchami n-ning qiymati 1 dan 7 gacha o’sish tartibida joylashishi mumkin (sarlavxa o’lchamiga teskari xolatda).

Masalan:

< p align=”center”> < font size=”5”> shrift o’lchami=5 < /font> < /p>

Xarf o’lchamlarini odatiy berishdan tashqari size=+2 yoki size=-1 ko’rinishda xam berish mumkin. Odatda Explorer dagi o’lchov 3 ga teng, lekin xar bir foydalanuvchining aloxida sozlanmasi xam bo’lishi mumkin.

Aniq saxifalar uchun shrift o’lchamlarini saxifa boshida joylanuvchi < basefont size=5> tegi bilan berish mumkin.



Jadvallarning xar bir yacheykasida yozilgan matnlar uchun xususiy **< font>** tegi qo’llaniladi (xarf rangiga xam tegishli).

Xarf rangi color=”rang” parametr yordamida beriladi, masalan:

< font color=blue size=+5> harf o’lchami 7, rangi ko’k < /font>

Maxsus belgilar

< > & ” – belgilari HTML da formatlash belgilari sifatidagi asosiy qiymatga ega. Lekin, ba`zan bu belgilardan o’z belgimiz sifatida ishlatishimizga to’g’ri kelib qoladi. Ularni matnda xosil qilish uchun quyidagilardan foydalaniladi:

&lt - <

&gt - >

&amp - &

&quot – “ (qo’shtirnoq)

shuningdek ixtiyoriy miqdordagi probellarni   dan foydalanib qo’yish mumkin.

Quyidagi jadvalda ba`zi belgilarni ifodalashlar berilgan:

№	Belgi kodi	natija	Belgi kodi	natija
1.	167;	§	„	„
2.	©	©	“	“
3.	®	®	”	”
4.	°	°	•	•
5.	«	«	–	–
6.	»	»	—	—

Eslatma: &lt o’rnida &LT dan foydalanish mumkin emas.

< BODY> elementining ichida **Web**-saxifa dizayni uchun ishlatilishi mumkin bo’lgan barcha elementlarni ishlatish mumkin. **BODY** elementining boshlang’ich tegasi ichida saxifaning ko’rsatgichlarini ta’minlab beradigan bir qancha atributlarini joylashtirish mumkin. Dizayn uchun juda foydali bo’lgan atributlardan biri saxifa foni rangini aniqlab beruvchi quyidagi atributdir.:

background=”*Fon fayliga bo’lgan yo’l***“**

Fonning oddiyroq usulda aniqlanilishi uning rangini berish orqali amalga oshiriladi:

bgcolor=”#*RRGGBB***”**

Fonning rangi uchta ikki razryadli qn oltilik sanoq sistemasida ifodalangan sonlar orqali beriladi va ular mos ravishda qizil (**RR**-red), yashil(**GG**-green) va ko’k(**BB**- blue) ranglarning intensivligini aniqlaydilar. **Web**-caxifadagi matnning rangini tanlash uchun quyidagi atribut ishlatiladi:

text=”*#RRGGBB***”**

Gipermatnlar yozuvining rangini tanlash uchun quyidagi atributdan foydalaniladi:

link=”#*RRGGBB***”**

Ko’rib chiqilgan gipermatnlar yozuvining rangini tanlash uchun quyidagi atributdan foydalaniladi:

v**link=”#***RRGGBB***”**

Oxirgi tanlangan gipermatnlar yozuvining rangini tanlash uchun quyidagi atributdan foydalanilishi mumkin:

alink=”#*RRGGBB***”**

BODY elementi ichida joylashgan gipermatn istalgan tuzilishga ega bo’lishi mumkin. Ushbu tuzilishni ko’p jixatdan **Web**-caxifaning nima maqsadda tashkil qilinayotganligi va dasturchining aqli, farosati va maxorati aniqlaydi desak, unchalik yanglishmagan bo’lar edik.